


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 3, Issue 8 **2025**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 8 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 8

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 8



TOШKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
№8 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-8>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaellovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sul-tonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA


1. Safarova Svetlana Satimovna XIVA XONLIGINING G‘ARBIY SIBIR HUDUDI BILAN MADANIY ALOQALARI TARIXI.....	7
2. Машарипова Садокат Абдуллажоновна ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ АМИРА ТИМУРА ПО КНИГЕ Т. ВАСИЛЬЧЕНКО “ЭМИР ТИМУР. ИСТОРИЯ, ЛИЧНОСТЬ, ВРЕМЯ”.....	14
3. Raufjon Mahmudov, Sultonova Jayrona O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING LEKSIK QATLAMLARI VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI.....	19
4. Шухрат Эркинович Худайбергенов ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ КЛАССИЧЕСКИХ КИНОКОМЕДИЙ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ РАКУРСЕ.....	26
5. Bobir Maxammadov MIKROSOFT WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING MAXSUS LUG‘ATLARDA BERILISHI.....	32
6. Raufjon Mahmudov, R.Allaberganova O‘ZBEK TILIDAGI TARIXIY ANTROPONIMLAR.....	37
7. Abdullayeva Shaxnoza TERMINOLOGIYA VA ONTOLOGIYA MUNOSABATLARI.....	43
8. Raufjon Mahmudov, Nilufar Zaripova ABU RAYHON BERUNIYNING “OSOR UL-BOQIYA” ASARI VA TILSHUNOSLIK AN‘ANALARI.....	54
9. Rasulqulova Sitora Shodmonjonovna O‘G‘UZ LAHJASINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA BILINGVIZM JARAYONLARI..	59
10. Raufjon Mahmudov, Dilfuza Ruzmatova JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING XORAZM MADANIY HAYOTIDAGI O‘RNI.....	64
11. Sherzod Atajanov UMUMERONIY TILLAR BILAN BOG‘LIQ ANTROPONIMIK TIZIM.....	72
12. Safarova Svetlana Satimovna XV – XVI ASRLARDA XORAZM VOHASINING QUYI VOLGABO‘YI HUDUDLARI BILAN ALOQALARI.....	77
13. Вазира Муродова “ОИЛА” КОНЦЕПТИНИНГ КОГНИТИВ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	83
14. Вазира Муродова “ОИЛА” КОНЦЕПТИНИНГ ЭТИМОЛОГИК – СЕМАНТИК ТАМОЙИЛЛАРИ.....	89

TARIX

- 15. Matqurbonov Omonbek Odilbekovich, Jumanazarova Sadoqat Zafarbek qizi**
KARVON YO‘LI BO‘YLAB HARAKAT QILGAN XORAZM SAVDOGARLARINING
SHARQIY YEVROPA VA KAVKAZDAGI FAOLIYATI.....99
- 16. Ismailov Bobur Baxramovich**
XIVA XONLIGIDA SO‘NGGI O‘RTA ASRLARDA METALSOZLIK XOM-ASHYO
MANBALARI VA TASHQI SAVDO ALOQALARI TARIXI.....103
- 17. Palvanova Tuxtajon Palvanovna**
XORAZMDA TEATR SAN‘TINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI.....108

Rasulqulova Sitora Shodmonjonovna-
International school of finance and technology,
EFL teacher
sitorarasulqulova@mail.ru

O'G'UZ LAHJASINING HUDUDYIY XUSUSIYATLARI VA BILINGVIZM JARAYONLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17154653>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'g'uz lahjasining hududiy ko'rinishlari, xususan, Buxoro turkmanlari nutqida kuzatiladigan fonetik, morfologik va leksik o'ziga xosliklar tahlil qilinadi. Lahja va adabiy til o'rtasidagi o'zaro ta'sir, shuningdek, o'zbek tilining turkman lahjasiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy manbalar asosida ko'rsatib beriladi. Bilingvizmning hududiy shakllanishi, diglossiya hodisasi hamda kod-almashtirish jarayonlari lingvistik nuqtayi nazardan yoritilgan. Tadqiqot natijalari o'g'uz lahjasining turkiy tillar tizimidagi o'rnini aniqlash va uning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'g'uz lahjasi, turkman tili, hududiy lahja, bilingvizm, diglossiya, interferensiya, kod-almashtirish.

Rasulqulova Sitora Shodmonjonovna-
International School of Finance and Technology
EFL teacher

REGIONAL FEATURES OF THE OGHUZ DIALECT AND BILINGUALISM PROCESSES

ABSTRACT

This article examines the regional varieties of the Oghuz dialect, with a particular focus on the speech of Bukhara Turkmens. The study analyzes phonetic, morphological, and lexical features that distinguish the dialect from the literary standard, as well as the influence of Uzbek on the Turkmen dialect. Special attention is given to the formation of regional bilingualism, the phenomenon of diglossia, and processes of code-switching from a sociolinguistic perspective. The findings contribute to defining the place of the Oghuz dialect within the Turkic language system and provide insights into its socio-linguistic characteristics.

Keywords: Oghuz dialect, Turkmen language, regional dialect, bilingualism, diglossia, interference, code-switching.

Расулкулова Ситора Шодмонжоновна-
Международная школа финансов и технологий
Преподаватель английского языка

РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОГУЗСКОГО ДИАЛЕКТА И ПРОЦЕССЫ БИЛИНГВИЗМА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются региональные разновидности огузского диалекта, в частности фонетические, морфологические и лексические особенности, наблюдаемые в речи бухарских туркмен. На основе научных источников показано взаимодействие диалекта и литературного языка, а также влияние узбекского языка на туркменский диалект. С лингвистической точки зрения освещаются процессы формирования билингвизма, явление диглоссии и код-свитчинг. Результаты исследования служат для определения места огузского диалекта в системе тюркских языков и анализа его социолингвистических характеристик.

Ключевые слова: огузский диалект, туркменский язык, региональный диалект, билингвизм, диглоссия, интерференция, код-свитчинг.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Tilshunoslikda shevalarning o'rne va ularning lingvistik tizimni shakllantirishdagi roli alohida ilmiy qiziqish uyg'otib kelmoqda. Sheva faqat fonetik, leksik yoki grammatik xususiyatlar majmui emas, balki ma'lum hudud, tarixiy jarayon va ijtimoiy muhitning mahsulidir. O'g'uz lahjasi shu nuqtai nazardan Markaziy Osiyodagi eng qiziqarli lingvistik hodisalardan biridir. U turkman tili va boshqa o'g'uz tillari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, asrlar davomida turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanib, rivojlanib kelgan. Ayniqsa, Buxoro viloyatida istiqomat qiluvchi turkmanlar va ularning o'g'uz shevasida so'zlashuvchi guruhlari ushbu jarayonni jonli tarzda namoyon etadi. Bu lahjaning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik jihatlari ularning ijtimoiy-lingvistik muhitini belgilab beradi hamda yangi til o'rganish jarayonida sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Qiyosiy-lingvistik metod** – turkman va o'zbek tillaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash.
2. **Tarixiy-qiyosiy tahlil** – o'g'uz lahjasining shakllanish jarayonini tarixiy manbalar asosida o'rganish (Bartold, 1963; Baskakov, 1969).
3. **Sotsiolingvistik kuzatuv** – Buxoro turkmanlarining hozirgi nutqiy muhitini, bilingvizm va diglossiya jarayonlarini tahlil qilish.
4. **Fonetik va morfologik tahlil** – lahjadagi tovush tizimi, qo'shimchalar, leksik o'zlashmalarni o'rganish.
5. **Madaniy-lingvistik yondashuv** – sheva orqali xalq urf-odatlarini, madaniy qadriyatlarini va kommunikativ odatlarini tahlil qilish.

Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari kuchayib borar ekan, turli tillar o'rtasidagi munosabatlar va bu munosabatlar natijasida yuzaga kelayotgan bilingvizm masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bilingvizmni tushunishda faqatgina ikki tilni bilish yoki ulardan foydalanish masalasi emas, balki ularning muloqot jarayonida bir-biriga qanday ta'sir ko'rsatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaraganda, o'g'uz lahjasida so'zlashuvchilar ikki tilli yoki ko'p tilli kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etar ekan, ular nafaqat turkman tilining adabiy shakli, balki o'zbek, rus yoki boshqa tillar bilan ham muloqot qiladi. Bunday ko'p qirrali til muhiti lingvistik muammolarni keltirib chiqaradi, ayniqsa yangi til o'rganishda fonetik, leksik va sintaktik interferensiya muammolari yuzaga chiqadi (Weinreich, 1953,7).

NATIJAR VA MUHOKAMA

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o'g'uz lahjasi va uning Buxoro viloyatidagi variantini o'rganish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarni ham chuqur anglash imkonini beradi. Bu shevada so'zlashuvchi kishilar bir tomondan o'z tarixiy-madaniy ildizlarini saqlab qolishsa, ikkinchi tomondan kengroq ijtimoiy muhitga moslashish ehtiyojini sezadilar. Natijada ularning tildan foydalanish modeli turli madaniyatlar va tillar kesishgan nuqtada shakllanadi. Shu boisdan, bunday lahjaning o'rganilishi tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va ta'lim metodikasi kabi

sohalar bilan hamohang bo‘lib, ko‘p qirrali ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Nazariy asos jihatidan olganda, bilingvizm masalalari ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, Ferdinand de Sossyur til tizimini ijtimoiy hodisa sifatida baholagan bo‘lsa, L. Vaysgerber til va tafakkur o‘rtasidagi aloqaga urg‘u bergan. O‘z navbatida, U. Vaynrayx bilingvizm jarayonida interferensiya masalasini markaziy o‘rinlarga chiqargan. O‘g‘uz lahjasini o‘rganishda ushbu nazariy yondashuvlardan foydalanish zarur, chunki bu lahja turli tillar bilan aloqada shakllangan bo‘lib, unga fonetik moslashuv, morfologik parallelizm va leksik almashinuv xosdir. Shuningdek, zamonaviy sotsiolingvistlar ham hududiy bilingvizmning o‘ziga xos jihatlari, xususan, til prestiji, kod-almashtirish va ijtimoiy stratifikatsiya kabi tushunchalarni alohida ta‘kidlab o‘tganlar (Fishman, 1972). Buxoro turkmanlari til muhitida ikki asosiy jarayon kuzatiladi: birinchisi, adabiy turkman tilidan ma‘lum darajada chetlashib, o‘g‘uz lahjasi unsurlarini kundalik nutqda faol ishlatish; ikkinchisi, o‘zbek tilining keng ta‘siri natijasida yuzaga kelayotgan leksik va fonetik o‘zgarishlar. Ushbu ikki yo‘nalish o‘z navbatida yangi til o‘rganishda sezilarli qiyinchiliklarni tug‘diradi. Masalan, talaffuzdagi farqlar, ayrim fonemalarning mavjud emasligi yoki aksincha, ortiqchaligi, o‘zbek tilidan kirib kelgan leksik birliklar yangi tilni o‘zlashtirish jarayonida fonetik va semantik chalkashliklarga sabab bo‘ladi. Bu esa lingvistik muhitning murakkab va o‘ziga xos tabiatini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, mazkur mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: birinchidan, o‘g‘uz lahjasining tarixiy ildizlari va uning turkman tilidagi o‘rnini aniqlash zarurati; ikkinchidan, Buxoro viloyatida shakllangan til muhitining o‘ziga xosligini ilmiy tahlil qilish ehtiyoji; uchinchidan, yangi til o‘rganishda ushbu lahjaning ta‘sirini ko‘rsatib berish muhimligi. Shu jihatlar ushbu tadqiqotning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘g‘uz lahjasi turkiy tillar oilasida o‘zining alohida o‘rniga ega bo‘lib, u qadimiy o‘g‘uz qabilalarining til xususiyatlariga tayanadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, o‘g‘uzlar VIII–IX asrlarda Amudaryo bo‘ylari va Orol dengizi atroflarida yashagan bo‘lib, ularning tili asta-sekin mustaqil fonetik, morfologik va leksik tizimni shakllantirgan (Bartold, 1963). Keyinchalik ular keng hududlarga tarqalib, hozirgi turkman, ozarbayjon, turk va gagauz tillarining shakllanishida asosiy omil bo‘lgan. Bu jarayonda Markaziy Osiyoda, xususan Buxoro va Xorazm hududlarida istiqomat qilgan turkman guruhlar ham o‘zining til muhitini yaratgan va bu muhit bugungi kunda ham o‘ziga xos lingvistik birlik sifatida mavjuddir. O‘g‘uz lahjasi va turkman tilining tarixiy asoslari bir-biridan ajralmas holda ko‘riladi. Chunki turkman tilining adabiy shakli ham o‘g‘uz til unsurlariga asoslangan. Shu bilan birga, turkman tilida fonetik va grammatik jihatdan qadimiy o‘g‘uz unsurlarini saqlab qolish kuzatiladi. Masalan, “y” tovushining keng qo‘llanilishi yoki “-lar/-ler” ko‘plik qo‘shimchasining o‘ziga xos talaffuzi o‘g‘uz lahjasi bilan yaqinlikni ko‘rsatadi. Bu xususiyatlar turkman tilini boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi belgilardan biridir (Johanson, 1998).

Tarixiy-lingvistik jihatdan qaralganda, o‘g‘uz lahjasi turkman tilining adabiy shakli bilan o‘zaro ta‘sirida bo‘lsa-da, mustaqil xususiyatlarga ham ega. U fonetik jihatdan ko‘proq dialektal variantlarga boy bo‘lib, talaffuzda ayrim tovushlarning qisqarishi yoki cho‘zilishi tez-tez uchraydi. Leksik jihatdan esa, qadimgi turkiy so‘zlarning saqlanib qolishi lahjaning tarixiy ildizlariga dalildir. Masalan, ba‘zi o‘g‘uz lahjalarida ishlatiladigan “yigit” so‘zi qadimiy turkiy tildagi shaklini saqlab qolgan bo‘lsa, boshqa turkiy tillarda u o‘zgarib ketgan. Bu kabi unsurlar lingvistik tarixiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi (Doerfer, 1987). Shunday qilib, o‘g‘uz lahjasi va turkman tilining tarixiy-lingvistik asoslari o‘zaro uyg‘unlikda shakllangan bo‘lib, ularning bugungi kundagi o‘ziga xosligi nafaqat qadimiy o‘g‘uz tilining davomiyligi, balki hududiy sharoit va qo‘shni tillar ta‘siri bilan ham izohlanadi. Buxoro viloyatida shakllangan o‘g‘uz lahjasi ana shu tarixiy jarayonlarning mahsuli sifatida turkman tilining lingvistik rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Sintaktik jihatdan ham Buxoro o‘g‘uz lahjasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Gap qurilishida qo‘shma gaplarning oddiyroq shakllardan foydalanilishi kuzatiladi. Ba‘zan o‘zbek tili sintaksisining ta‘siri bilan gaplarda so‘z tartibi o‘zgaradi. Masalan, standart turkman tilida “Men öye baryan” (Men uyga ketayapman) shaklida bo‘lsa, Buxoro lahjasida “Men uyga baraman” shaklida talaffuz qilinishi mumkin. Bu jarayon tilning hududiy kontaktlar ta‘sirida o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi

(Doerfer, 1987). Leksik darajada esa, Buxoro o'g'uz lahjasi o'zbek tili bilan uzoq muddatli aloqalar natijasida ko'plab qarzma so'zlarga ega bo'lgan. Kundalik hayotga oid ko'plab atamalar va so'zlar o'zbek tilidan o'zlashtirilgan. Masalan, “bozor”, “osh”, “do'st” kabi so'zlar lahjada keng qo'llanadi. Biroq, shu bilan birga qadimiy o'g'uz tilidan qolgan so'zlar ham mavjud bo'lib, ular boshqa turkiy tillarda deyarli saqlanib qolmagan. Masalan, “a'yak” (oyoq), “yigit” (yigit) kabi so'zlar qadimiylarning dalili sifatida lahjaning lug'at boyligini to'ldirib turadi. Buxoro o'g'uz lahjasi nafaqat lingvistik, balki madaniy xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Lahja orqali xalqning og'zaki ijodi, maqollar, qo'shiqlar va afsonalar asrlar davomida saqlanib kelmoqda. Bu jarayon lahjaning nafaqat til vositasi, balki madaniyat tashuvchisi sifatida ham faoliyat yuritishini ko'rsatadi. Masalan, turkmanlarning qadimiy “dutar” qo'shiqlari Buxoro hududida o'zbek xalq qo'shiqlari bilan qo'shib, o'ziga xos musiqiy-lingvistik uyg'unlikni yaratgan. Shunday qilib, Buxoro viloyatida shakllangan o'g'uz lahjasi tarixiy, hududiy va madaniy omillar ta'sirida o'ziga xos til tizimini vujudga keltirgan. U fonetik, morfologik, sintaktik va leksik darajada turkman tilining boshqa variantlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, bu lahja hududiy bilingvizm va ko'p tillilik jarayonlarini tadqiq etishda muhim lingvistik manba sifatida xizmat qiladi.

Buxoro viloyatida yashovchi turkmanlar tilidagi hududiy bilingvizmning shakllanishi uzoq tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Hududiy bilingvizm deganda, ma'lum hududda yashovchi aholi o'z ona tilidan tashqari, qo'shni millatlar yoki ko'pchilik til vakillari bilan doimiy muloqot natijasida ikkinchi tilni ham faol qo'llashi tushuniladi. Buxoro turkmanlari til muhitida bu holat ayniqsa o'zbek tili va turkman tilining o'zaro ta'siri orqali yuzaga kelgan. Tarixiy manbalardan ma'lumki, o'g'uz qabilalarining Movarounnahr hududiga kirib kelishi XI–XII asrlarda yuz bergan va ular bu hududda uzoq muddat yashab qolgan. O'sha davrlarda o'zbek xalqi shakllanish jarayonida bo'lib, turkiy lahjalarning ko'pligi o'zaro muloqotda bir qancha integratsion jarayonlarni yuzaga keltirgan (Baskakov, 1969). Natijada, Buxoro hududida yashagan o'g'uzlar bir tomondan, o'z ona tilini saqlab qolishga, ikkinchi tomondan esa o'zbek tili muhitida yashash natijasida asta-sekin bilingvizmga o'tishga majbur bo'lganlar. Hududiy bilingvizm shakllanishining asosiy sabablaridan biri – ijtimoiy-madaniy aloqalardir. Turkmanlar asrlar davomida o'zbek aholisi bilan savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va kundalik hayotiy faoliyatda bevosita muloqot qilgan. Bu muloqotda turkman tilining shevaviy ko'rinishlari bilan o'zbek tili unsurlari o'zaro qo'shib, yangi lingvistik sintez yuzaga kelgan. Masalan, turkmanlar kundalik so'zlashuvda ko'pincha o'zbekcha termin va iboralarni ishlatgan, biroq oilaviy muhitda o'z lahjasini asrab qolgan. Hududiy bilingvizmning shakllanishida ta'lim tizimi ham muhim rol o'ynaydi. Buxoro viloyatida o'quv jarayonlari asosan o'zbek tilida olib borilganligi sababli, turkman bolalari maktab yoshidan boshlab ikki tilli muhitda ulg'ayganlar. Bir tomondan, ular uyda o'z ona shevasida gaplashgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan maktab va jamiyat hayotida o'zbek tilidan faol foydalanganlar. Bu holat til o'zlashtirishning tabiiy ikki bosqichini shakllantirgan: avval sheva, keyin esa o'zbek tilini faol o'rganish va qo'llash. Hududiy bilingvizmning shakllanishiga siyosiy va ma'muriy omillar ham ta'sir ko'rsatgan. XX asrda Sovet Ittifoqi davrida turkman milliy maktablari qisqartirilib, ta'lim asosan o'zbek tilida olib borila boshladi. Bu jarayon turkmanlar orasida o'zbek tilining mavqeini keskin oshirdi, natijada ko'pchilik turkman yoshlarining til kompetensiyasi ikki tillilik asosida shakllandi. Shu bilan birga, rasmiy hujjat yuritish, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish va davlat boshqaruvida qatnashish jarayonlarida ham asosan o'zbek tili ustun bo'ldi. Hududiy bilingvizmning o'ziga xos jihati shundaki, u nafaqat ikki tilni bilishni, balki ularning qo'llanish doirasini ham belgilab beradi. Masalan, turkmanlar ko'pincha oilaviy va mahalliy muhitda o'z ona shevasidan foydalanadilar, lekin keng jamoat hayotida, ta'limda va ish faoliyatida o'zbek tilidan foydalanadilar. Bu holat Ferguson ta'riflagan diglossiya hodisasiga yaqin bo'lsa-da, u o'zining hududiy va tarixiy konteksti bilan farq qiladi (Ferguson, 1959).

Buxoro viloyatida shakllangan o'g'uz lahjasi va turkman tili misolida kuzatilayotgan hududiy bilingvizm o'zining lingvistik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu jarayon tarixiy ildizlarga ega bo'lib, o'g'uz

qabilalarining Movarounnahr hududiga kirib kelishi va mahalliy turkiy lahjalar bilan uzviy muloqotga kirishi natijasida yuzaga kelgan. Ayni paytda, bilingvizm faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Hududiy bilingvizmning shakllanishida uch asosiy omil ajralib turadi. Birinchidan, ijtimoiy-madaniy muloqotning doimiyligi turkman va o'zbek xalqlarining til almashinuvi va til birikmasiga olib kelgan. Bu jarayon kundalik hayot, savdo-sotiq, oila va mahalla munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlangan. Ikkinchidan, ta'lim tizimi til siyosatini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, turkman bolalarining maktab davridan boshlab ikki tilli muhitda ulg'ayishi ularning tabiiy ravishda bilingv shaxs sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan. Uchinchidan, siyosiy qarorlar va davlat boshqaruvi jarayonida o'zbek tilining ustuvor mavqei hududiy bilingvizmni yanada kuchaytirgan.

O'g'uz lahjasi va adabiy turkman tilining o'zaro munosabati ham mazkur jarayonda muhim o'rin tutadi. Lahja va adabiy til o'rtasidagi tafovutlar o'ziga xos fonetik, morfologik va leksik farqlar orqali namoyon bo'lsa-da, bu ikki ko'rinishning uzviy aloqasi turkman tilining umumiy tizimini saqlab qolishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Buxoro turkmanlarining ikki tilli muhitda yashashlari natijasida adabiy til va o'zbek tili o'rtasida ham o'ziga xos til o'zgarishlari va yangicha til qatlamlari shakllanmoqda. Bilingvizmning hududiy shakllanish jarayoni, ayniqsa, yoshlar va avlodlararo tafovutlarda yaqqol ko'rinadi. Keksalar turkman lahjasini faol qo'llashni davom ettirsalar, yosh avlodning ko'pchiligi o'zbek tilida erkin fikrlash va yozishga moyildir. Bu esa Fishman tomonidan ilgari surilgan til almashuvi jarayoniga yaqin bo'lib, kelajakda hududiy bilingvizmning kuchayishi yoki aksincha, assimilyatsiya jarayoniga olib kelishi ehtimolini bildiradi.

XULOSA

Shunday qilib Buxoro turkmanlari misolida kuzatilayotgan hududiy bilingvizm – bu nafaqat ikki tilning bir hududda yonma-yon mavjudligi, balki tilning ijtimoiy-madaniy va siyosiy jarayonlar bilan uyg'unlashgan murakkab tizimidir. Ushbu jarayonni chuqur o'rganish turkiy tillar rivojlanishining istiqbollari aniqlash, til siyosatini yanada takomillashtirish va mahalliy shevalarni saqlashga oid ilmiy hamda amaliy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Haugen E. *The Norwegian Language in America: A Study in Bilingual Behavior*. Bloomington, 1953.
2. Weinreich U. *Languages in Contact*. New York: Linguistic Circle, 1953.
3. Ferguson C. *Diglossia*. Word, №15, 1959.
4. Fishman J. *Language and Nationalism*. Rowley, Mass.: Newbury House, 1972.
5. Bartold V.V. *Sochineniya*. T. V. — Moskva: Nauka, 1963.
6. Baskakov N.A. *Turkmenskiy yazyk*. Moskva: Nauka, 1962.
7. Baskakov N.A. *Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazykov*. Moskva: Nauka, 1969.
8. Johanson L. *Code-copying in Irano-Turkic*. Turkic Languages, 1998.
9. Doerfer G. *Zur Stellung der turksprachen*. Wiesbaden, 1987.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000